



MUDOFAA VAZIRLIGI HUZURIDAGI “G‘ALABA BO‘G‘I” YODGORLIK MAJMUASI

1-BOB: “G‘ALABA BO‘G‘I” YODGORLIK MAJMUASI.

2-MASHG’ULOT: “MOTAM VA ANDUH” HUDUDI.

Toshkent sh. 2021 y.

Motam va anduh hududi “Matonat madhiyasi” kompozitsiyasi

Ikkinchı jahon urushi onani farzanddan, farzandni onadan ayirgan, shuningdek, insoniyat ustidan qilingan katta jinoyat edi. Toshkent viloyati Zangiota tumanida voyaga yetgan Zulfiya aya Zokirova matonatli va fidoiy o‘zbek ayoli timsoli. U Ikkinchı jahon urushida bir emas, besh nafar azamat o‘g‘lidan judo bo‘lgan. Zolim urush tufayli Zulfiya ayaning to‘rt kelini beva, besh nabirasi yetim qoldi. Bu kompozitsiyada Zulfiya aya Zokiraning g‘am anduhi hamda besh nafar norqul yigitlarning monumental haykallari ifodalangan. Aya kelinlarini turmushga bermoqchi bo‘ladi, ammo kelinlari aya bilan birgalikda butun umr motam tutib qolishga qaror qiladi. Bu - sevgi va sadoqat madhiyasi, o‘zbek ayolining yengilmas kuch-qudrati timsolidir.



**Zulfiya aya, kelinlari va nabiralari
kompozitsiyasi**



“Motam va anduh” hududidan o‘rin olgan Zulfiya aya, kelinlari va nabiralari kompozitsiyasi fotolavhalari

“KO‘Z YOSHI” YODGORLIGI

“Ko‘z yoshi” yodgorligi tubsiz girdob shaklida ishlangan bo‘lib, bunda dahshatli urush qanchadan-qancha insonlarni millati, dini va jinsidan qat’iy nazar – abadul-abad domiga tortib ketgani tasvirlangan. Musulmon, nasroniy, yahudiy kabi turli dinlarga mansub insonlar xotirasiga o‘rnatilgan qabrtoshlar urushda halok bo‘lgan va yo‘qsizlik sari yo‘l olgan saf-saf askarlarga o‘xshaydi. Girdobning har bir qatida 1941-1945 yillarda halok bo‘lgan jangchilarining soni yilma-yil alohida qayd etilgan. Eng oldingi qatlamda urushgacha yashagan va urush davrini ko‘rgan insonlarning tabassumli chehralari aks etgan fotosuratlar joylashtirilgan. Ularning beg‘ubor nigohlari bir dunyo orzu-havasi va hayotga bo‘lgan cheksiz muhabbatini shundoq uqib olish mumkin. Yodgorlik ostonasidagi suv sathi esa qayg‘u va anduh ko‘z yoshlardan hosil bo‘lgan ko‘lni anglatadi.





O'zbekistondan frontga mehnatga layoqatli aholining deyarli yarmi – 1 million 951 mingga yaqin kishi ketdi. Ularning har uchtadan biri bizning vatanimiz uchun jonini berdi. G'alaba bog'i markazida o'rnatilgan ramziy devor orqasida dahshatli urush ketayotgan front chizig'ini anglatadi. Devorning orqa tomonida o'zbek xalqining front ortidagi mashaqqatli mehnati, g'amxo'r qo'llari, mehnatsevarligi va qahramonligi aks etgan. Ushbu kompozitsiyada xalqimizning urf-odatlarini aks ettiradigan devorga osilgan tishlangan non aks ettirilgan. Urushga ketayotgan askarga non chetidan tishlatilgan va u qaytguncha devorga osib qo'yishgan. U "Oy borib, omon qayt" degan ma'noni bildirgan.